

**“QUTADG‘U BILIG” TURKIY XALQLAR AXLOQIY
QADRIYATLARINI O‘ZIDA MUJASSAM ETGAN NODIR MANBA
SIFATIDA**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15629541>

Po‘latova, Dildor Akmalovna

Alfraganus Universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori

orcid.org/0000-0002-6551-1982

ANNOTATSIYA

IX-XII asrlar bashariyat tarixiga Markaziy Osiyo, O‘rta va Yaqin Sharqda ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning “oltin davri” deb kirgan. Bu davrda yashab ijod etgan Markaziy Osiyolik Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi buyuk ensiklopedik olimlar va mutafakkirlarning ilmiy faoliyati va ma’naviy merosi jahon ilm-fani, madaniyati va sivilizatsiyasining keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘rta asr Sharq Renessansining buyuk namoyandasi Yusuf Xos Xojib adolatli jamiyat, insonning baxt-saodatga erishishida ta’lim va tarbiyaning uzviyiligi haqidagi ta’limotlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur maqolada Yusuf Xos Xojibning mashhur “Qutadg‘u bilig” asari va undagi axloqiy qadriyatlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘rta asr Sharq Renessansi, Yusuf Xos Xojib, “Qutadg‘u bilig”, axloqiy qadriyatlar, Yusuf Xos Xojibning axloq falsafasi.*

**“KUTADGU BILIG”
AS A RARE SOURCE EMBODIING THE MORAL VALUES OF THE
TURKISH PEOPLES**

Pulatova, Dildor Akmalovna

professor Alfraganus University

of the Department of Social Sciences

ABSTRACT

The IX-XII centuries entered the history of mankind as the "golden period" of socio-cultural development in Central Asia, the Middle and Middle East. The scientific work and spiritual heritage of such great encyclopedic scientists and thinkers of Central Asia as Musa al-Khwarizmi, Abu Nasr al-Farabi, Abu Abdullah al-Khwarizmi, Abu Rayhan al-Beruni, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Mahmud Kashgari, who lived and worked during this period, were of great importance in the subsequent development of world science, culture and civilization.

The teachings of the great representative of the medieval Eastern Renaissance, Yusuf Khosa Hajib, on the importance of education and upbringing in achieving a just society and human happiness have not lost their relevance in our days.

This article analyzes the famous work of Yusuf Khos Khodzhib “Kutadgu Bilig” and the moral values embedded in it.

Keywords: Medieval Eastern Renaissance, Yusuf Khos Hadjib, “Kutadgu Bilig”, moral values, moral philosophy of Yusuf Khos Hadjib.

KIRISH

Buyuk xalqimiz ming yilliklarga borib taqaladigan boy tarixiy madaniyat va ma’naviy merosiga ega. Tarixiy manbalarda xalq og‘zaki ijodi, an’analari va urf-odatlariga oid ma’lumotlar saqlanib qolgan. Xalqimizning qadimgi va o‘rta asrlar madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘zida jam etgan yozma manbalardan biri dunyoga mashhur turkiy mutafakkir Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari hisoblanadi.

Mazkur asar qadimgi turkiy xalqlarning ko‘p asrlar davomida shakllangan avlodlarning madaniy va ma’naviy tajribasiga oid qimmatbaho materialdir. Unda o‘z davrining ilg‘or ijtmoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlariga oid qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur bilimlar nafaqat o‘tmish balki hozirgi davrda ham yoshlar, ziyorilar, boshqaruva sohasida band bo‘lgan insonlar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Metodologiya

Tadqiqotda kontent tahlil, germenevtik tahlil va taqqoslash uslublari qo‘llanildi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida aks etgan axloqiy qadriyatlariga oid fikrlari tahlil qilindi.

“Qutadg‘u bilig” asari o‘z davrining nafaqat axloqiy qadriyatlarni, shu bilan birga davlatni boshqarish usullari, qonunlar va farmonlar, normalarini, turkiy xalqlarning tarixi, ilm-fani va madaniyatiga oid ko‘plab ma’lumotlar ham o‘zida mujassam etgan. Yusuf Xos Hojib O‘rta asr Sharqining yirik bilimdonlaridan edi. U o‘sha davr diniy ilmi, shuningdek, adabiyot, tarix, falsafa, tabobat, ruhshunoslik kabi fanlarni chuqur egallagan bo‘lib, zamondoshlari Ibn Sino, Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy kabi mutafakkirlarning asarlaridan boxabar bo‘lgan.

Yusuf Balasog‘uniy Yettisuv o‘lkasidagi Kuzo‘rda (Balasog‘un) shahrida 1016-1018 yillar orasida dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o‘lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan qoraxoniylar sulolasiga qo‘l ostida edi. Bu sulola VI–IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining davomchilari bo‘lib, IX asr o‘rtalaridan davlatni boshqarib keldilar. X asr boshlarida Abdulkarim Sotuq Bug‘raxon (924-955) islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy elatlar ham uzilkesil islom mintaqasi madaniyatiga kelib qo‘sildilar. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar.

Balasog‘un ushbu ulkan mamlakatning shimolidagi poytaxti edi. Aynan XI asrdan boshlab O‘rta Osiyo mintaqasida birinchi marta musulmon adabiyoti turkiy tillarda rivojlana boshladi.[1,370]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ilk turkiy musulmon adabiyotining bizga ma’lum bo‘lgan birinchi yirik yodgorligidir. Mutafakkir ijodiga arab-fors adabiyoti ta’sir etgan bo‘lsada, unda turkiy dostonchilik an’analari ustivorlik qilgan. Xususan, bu qahramonlar nomini tanlashda yaqqol namoyon bo‘ladi: hukmdor Kuntog‘di – “Quyosh chiqdi”, uning vaziri Oyto‘ldi “To‘lin oy”. Shuningdek, O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston xalqlari folklorida ijobiy qahramonlar ko‘pincha qo‘shma ismlarga ega bo‘ladi, xususan, ularning bir qismi Kyun – “Quyosh” yoki Ay (Oy) – “Oy”dir [2]. Bu jihatdan ham asar turkiy dostonchilik an’analarni davom ettirgan.

Mulohaza

Yusuf Xos Hojib ijodi ko‘chmanchilar davlati sharoiti va harbiy-demokratik tuzum an’analarda o‘z aksini topgan qadimgi turk yodgorliklaridan jiddiy farq qiladi. U yodgorliklarda asosan ezzulik xonning yaxshi ishlari, uning shaxsiy jasorati, harbiy shon-shavkati, jasurligi va sarkardalik iste’dodi ta’riflangan.

Yusuf Balasog‘uniyning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asarining yozilishi 462/1069-1070 yillarga tegishli. Asar masnaviy (juft qofiyali doston) shaklida yozilgan, hajmi jihatidan katta (6600 baytdan ortiq) va yaqqol didaktik xususiyatga ega. Muallif o‘z asarini «Shohnomayi turkiy» deb shuhrat topganini aytadi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari «Adab ul-Muluk» («Hukmdorlar odobi») va «Oyin ul-mamlakat» («Mamlakatni idora etish qoidalari»). Asarning bunday nomlar bilan dovrug‘ qozongani unda o‘z zamonasida mavjud dolzarb masalalarini o‘zida mujassam etgani bilan ham bog‘liq. “Xos Xojib”, ya’ni “eshik og‘asi” degan nom shoirga mashhur asari uchun berilgan, uning mavqeini deyarli vazirlik darajasigacha ko‘targan unvon edi.

Dostonning mazmuni to‘rtta asosiy qahramon timsolida, ular o‘rtasidagi dialoglar va axloqiy suhbatlar orqali yoritiladi. Ulardan birinchisi, Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi Kuntog‘di, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Oyto‘ldi – Davlat, bosh vazir; turkiyda u boylik, qut-baraka timsoli. Qut yoki Davlat ichki mazmuniy tushuncha bo‘lib, Boylik, Baraka, Omad, Baxt, qudrat ma’nolarini o‘zida jamlagan, hukmdorning tayanchi, uning beliga quvvat, qo‘ziga nur, mulkiga farovonlik baxsh etuvchi bosh maslahatchi va vazir. Ammo Oyto‘ldining umri foni, Davlat, Baxt, Omad degan narsalar abadiy emas, osmondagi Oy singari goh to‘lib balqiydi, goh Hilol singari noziklashib, quvvatdan ketadi, orada ko‘rinmay qolishi ham mumkin. Oyto‘ldi asar davomida xastalanib vafot etadi. Ammo uning vorisi, o‘g‘li O‘gdulmish uning o‘rinbosari, hukmdorning yaqin maslahatchisi bo‘lib qoladi. O‘gdulmish Aql va Bilim ramzi. Agar Boylik, Omad, Baxt o‘tkinchi bo‘lsa, kishi qo‘lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o‘rnini bosa oladi. Asli asarning bosh qahramoni O‘gdulmish, ya’ni Aql va Bilimdir. Shu sababli kitobning asl nomi ham «Qutadg‘u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim»). Baxt, qut-baraka, omad, qudrat manbai bo‘lmish bilim bilan bog‘liqidir. Asardagi to‘rtinchi timsol – qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo‘lmasa,

uning barcha xosiyati hech qanday qadr-qimmatga ega emas, ularning hatti-harakatlari oqibati ayanchlidir. Qanoatning ismi O‘zg‘urmish bo‘lib, u Oyto‘ldining, ya’ni Baxt va Davlatning, O‘gdulmishning, ya’ni Aql va Bilimning qarindoshidir. Ammo Oyto‘ldi qarindoshini eslamaydi. Baxt va Omad qanoatni xotirasiga keltirmaydi. Hukmdor (Elig)ga O‘zg‘urmish qarindoshi haqida O‘gdulmish eslatadi, ya’ni Adolat Aql yordamida qanoatdan xabar topadi va u bilan ko‘rishishni xohlaydi. Asar oxirida O‘zg‘urmish ham xastalanib vafot etadi, Kuntug‘di va O‘gdulmish, ya’ni Adolat va uning bosh maslahatchisi Aql qoladilar. Ular islom ma’naviyatining bosh timsollari edi. Shoir Aql va Bilimni el-yurt, xalq farovonligi yo‘lida xizmat ettirish eng asosiy burch deb hisoblaydi. Aql avvalo Adolatga himoyachi va maslahatgo‘y bo‘lmog‘i talab etiladi.

Yusuf Xos Hojib o‘z dostonida quyidagilarni yozadi: «Agarda bek el haqida g‘amxo‘rlik qilsa, uning fuqarolari boyib ketsa, unda bekning hamma istaklari ro‘yobga chiqadi. Agar xalq o‘z axloqini takomillashtirib borsa, bek ham axloq-odobda kamol topib boradi, bordi-yu, bek axloqli, odobli bo‘lsa, u o‘z xalqi uchun yaxshilik qilgan bo‘ladi»[3, 160], - deb ta’kidlaydi u.

Asarda O‘zg‘urmish shaxsi tarkidunyo etgan, zohidlik, taqvo va qanoatni yashash tarziga aylantirgan so‘fiylar timsolidir. Mutafakkir fikricha, qanoat Oqibatni o‘ylash bilan bo‘ladi, u insonga Ofiyat (ruhiy osoyishtalik, qoniqish) keltiradi. Adolat qanoatsiz bo‘lmaydi. Hukmdor so‘fiyning, zohidning suhbatidan bahramand bo‘lib turishi kerak. So‘fiy hukmdorni qidirib kelmaydi, hukmdor uni o‘zi qidirishi, suhbatiga intiq bo‘lishi kerak. Yusuf Xos Hojib tasavvuf g‘oyalariga, haqiqiy taqvo egalariga yuksak ehtirom bilan qaraydi, ammo jamiyat, xalq baxti uchun, Adolat tantanasi uchun o‘z umrini bag‘ishlash uning bosh yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Uning suyukli qahramoni O‘gdulmish – Aql va Bilim egasi, umrini Adolat xizmatiga bag‘ishlagan shaxsdir.

Yusuf Xos Hojib kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash’alaga o‘xshatadi. Shu bilan birga, insonning tashqi qiyofasi uning ma’naviy dunyosiga mos bo‘lishiga katta ahamiyat beradi, ya’ni u ikki dunyoning (tashqi va ichki dunyoning) birligi, aql-zakovati raso kishining ajralmas fazilatidir, deb hisoblaydi. Uningcha, halol, haqgo‘y, odobli kishi har qanday qimmatbaho narsadan ham qimmatirokdir, bunday kishiga “baxt har ikki dunyoda kulib boqadi”[3, 136].

Tashqi va ichki ruhiy dunyosining birligi yetuk insonning ajralmas fazilatidir. Haqiqiy inson shundayki, uning so‘zлari bilan amaliy ishlari bir-biridan farq qilmaydi. Fazilatli insonning yana bir xususiyati uning sodda va kamtarligidir. Mutafakkirning yozishicha, bu dunyoda hamma narsa o‘tkinchi, inson hayoti ham, yuqori mansab va boyliklar ham. Agar bugun ularga ega bo‘lsang, ertaga, ehtimol, ular yo‘q bo‘ladi, shuning uchun hozirgi boyliging va mansabing tufayli takabburlikka yuz tutishing, butunlay be’manilikdir.

Inson uchun eng xavfli sifatlar ta’magirlik va boylikka intilishdir. Ular inson tabiatini axloqiy jihatdan buzib, zo‘rlik va o‘zboshimchalikka olib keladi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiya-bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy omil ekanligini, agar bolalarning xulq-atvori yomon bo‘lsa, bunga bola emas, ota aybdor ekanligini, ota o‘z farzandini aqlli va fahmli qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsa, u bolani doimo diqqat-e’tibor ostida tutishi lozimligini ta’kidlaydi. Mutafakkir fikricha, ota-onalarning o‘z bolalarini hunar va bilimga o‘rgatishi ularning axloq-odobili qilib tarbiya topishining asosidir.

XULOSA

Asar o‘zining yorqin tasviri va nisbatan sodda tili bilan ajralib turadi. Doston musulmon mafkurasiga asoslangan turkiy tildagi eng qadimiylar asardir. Taxmin qilish mumkinki, uning vazifasi o‘sha paytda ichki nizolar tufayli parchalanib ketgan davlatda boshqaruvning yangi axloqiy va huquqiy asoslarini yaratish edi.

Yusuf Balasog‘uniyning turkiy adabiy salaflari bo‘lgan, ammo ularning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Muallifning arab va fors she’riyati an’analarini ham, turkiy xalq amaliy san’ati obrazlarini ham yuksak mahorat bilan namoyon etgani, shaklan mukammal, falsafiy mazmunan chuqur asar yaratishga muvaffaq bo‘lganligi shundan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Пылев А.И.Обзор тюркской мусульманской поэзии Средней Азии XI–XII вв. в свете освоения идей и образов суфизма// В кн: Тюркские языки и литературы в исторической перспективе.Коллективная монография. Москва 2022. С.370.
2. Фомкин М. С. Поэтическая картина мира Юсуфа Баласагуни (к 950-летию поэмы «Кутадгу Билиг») <https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskaya-kartina-mira-yusufa-balasaguni-k-950-letiyu-poemy-kutadgu-bilg>.
3. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. /Қ.Каримов табдили. - Т.: Фан, 1972.
4. Юсуф Хос Хожиб. Кутадғу билиг. /проф. Б.Тұхлиев табдили. - Т.: Чулпон, 1990.
5. Каримов Қ. Илк бадиий достон. – Т.: Фан, 1972.
6. Тұхлиев Б. Юсуф Хос Хожиб ва унинг «Кутадғу билиг» достони. – Т.: Фан, 1993.